


BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik sub'yektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- mart oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar- mart oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **4,4** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,5 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



147

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

4 610

Ishlab chiqarish sanoati

18

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

95

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 4 870 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 105,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,7%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 101,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 94,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 130,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,2** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni




4,2 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




7,0 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




33,3 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



8,8 foizga oshdi




Xususiy korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik sub'yektlar isoni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

759



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

26



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

14



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



384

yashash bo'yicha xizmatlar



2 036

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2 420 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,6 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 103,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 84,1%), yashash bo'yicha xizmatlarning-106,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 15,9 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)






Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 3 658 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 343 taga yoki 110,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 324 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 247 taga yoki 108,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 143 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 192 taga yoki 57,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 368 tani tashkil etib, ulardan 362 tasi yoki 98,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 52 taga yoki 116,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- mart oylarida viloyatimizda 12 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- mart oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

14



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	97	193	284	310	362
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2	17	20	28	33
Sanoat	59	90	121	121	129
Qurilish	4	12	31	34	37
Savdo	13	37	55	70	94
Tashish va saqlash	-	3	5	5	6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	14	21	22	26
Axborot va aloqa	1	-	1	1	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	4	6	6	8
Boshqa turlar	10	16	24	23	24

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

15

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Viloyat bo'yicha	362	201	161
Buxoro shahar	195	92	103
Kogon shahar	17	14	3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	6	1	5
Buxoro	25	19	6
Vobkent	5	3	2
G'ijduvon	12	8	4
Kogon	27	19	8
Qorako'l	8	6	2
Qorovulbozor	9	4	5
Peshku	21	9	12
Romitan	13	9	4
Jondor	15	11	4
Shofirkon	9	6	3

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 198 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 53,8 %), Kogon tumani 27 ta (7,3 %), Peshku tumani 21 tani (5,7 %), Kogon shahar 17 ta (4,6 %), Buxoro tumani 25 ta (6,8 %), hamda Jondor tumanlarida 15 tani (4,1 %) tashkil etadi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2018-2022- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investisiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (28,2 %), G'ijduvon (11,0 %), Romitan (8,4 %), Buxoro (7,5 %), Jondor (6,8 %), Peshku (5,9 %), Shofirkon (6,0 %), Kogon (5,2 %), Qorako'l (5,6 %), Vobkent (5,3 %), Kogon shahar (4,2 %), Olot (3,6 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar- mart oylarida, birlikda)

2022- yilning yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (23,6 %), G'ijduvon (11,2 %), Buxoro (8,7 %), Romitan (10,9 %), Peshku (4,5 %), Kogon (7,2 %), Jondor (8,5 %), Vobkent (6,9 %), Shofirkon (6,3 %), Qorako'l (4,0 %), Olot (2,5 %), Qorovulbozor (1,6 %) tumanlari va Kogon shahar (4,1 %), ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni



(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (29,0%), G'ijduvon (10,5%), Romitan (8,8%), Buxoro (7,9%), Jondor (7,2%), Peshku (5,8%), Shofirkon (5,8%), Kogon (5,5%), Vobkent (5,3%), Qorako'l (4,7%), Kogon shahar (4,1%), Olot (3,1%), Qorovulbozor (2,3%) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022-yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'yektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Buxoro viloyati

Statistik registrnlarni yuritish bo'limi

Tel.: (65) 223-83-20